



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “8” iyun

01-04465 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
11-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«31» may 2023 yil

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) jamoasi tomonidan 2022-2023 o‘quv yilida olib borilgan ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar holati, muammolar, yechimi.

**Ma‘ruzachi** – Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovich.

2. Tibbiy - profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti hisoboti.

**Ma‘ruzachi** – Tibbiy - profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani Salomova Feruza Ibodullaevna.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma‘ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma‘ruzachi** – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i v.v.b Abdullaeva Dilafuz G‘ayratovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan maqullandi.

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) jamoasi tomonidan 2022-2023 o‘quv yilida olib borilgan ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar holati, muammolar, yechimi” mavzusi bo‘yicha, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovichning ma‘lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlansin. “Sport klubi” faoliyati samarali tashkil etilsin, moddiy texnik imkoniyatlari kuchaytirilsin va sportchi talabalarni iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun sharoitlar yaratilsin.

**Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Bosh buxgalter B.I.Alijonova, “Shifokor” sport majmuasi rahbari Sh.F.Yermatov**

**Muddat: 2023-yil sentabr.**

1.2. Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari doirasida Talabalar turar joyi hovlisiga 4 ta sport maydonchalari barpo etilsin.

**Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Bosh muhandis A.E.Ikromov, Ekspluatatsiya va xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i B.T.Abubakirov, “Shifokor” sport majmuasi rahbari Sh.F.Yermatov.**

**Muddat: 2023-yil iyun-sentabr.**

1.3. Talabalar turar joylariga kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilar tashriflari yo‘lga qo‘yilsin.

**Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

1.4. Talabalar turar joylari to‘lovlarini to‘liq amalga oshirmagan talabalar bilan individual ishlash va to‘lovlarni yakuniga yetkazish choralari ko‘rilsin.

**Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov, TTJ direksiyasi direktori A.D.Apisov, Ilmiy tadqiqot sektori D.A.Akramov, barcha fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023-yil iyun.**

1.5. 2023-2024-o‘quv yili uchun Talabalar turar joylarida talabalar uchun sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha mavjud kamchiliklar va ehtiyojlar aniqlansin, ularni bartaraf etish choralari ko‘rilsin, ta‘mirlash ishlari amalga oshirilsin.

**Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov, TTJ direksiyasi direktori A.D.Apisov, Bosh muhandis A.E.Ikromov, Ekspluatatsiya va xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i B.T.Abubakirov.**

**Muddat: 2023-yil iyul-avgust.**

1.6. 2023-2024-o‘quv yilida talabalarni TTJlarga joylashtirish to‘liq raqamlashtirish tizimi (elektron platforma) orqali amalga oshirilsin.

**Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, TTJ direksiyasi direktori A.D.Apisov, fakultet dekanlari, tarbiyachi pedagoglar.**

**Muddat: 2023-yil avgust.**

1.7. Madaniyat uyi konsepsiyasi tasdiqlansin, moddiy texnik imkoniyatlari kuchaytirilsin, talabalarning iqtidorini rivojlantirish va namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaxshilansin.

**Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov “Madaniyat uyi uslubchisi M.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2023-yil iyun-sentabr.**

1.8. Barcha kafedralarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar faoliyati kuchaytirilsin.

**Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

1.8. TTAning Bosh o‘quv binosi kirish qismiga buyuk olim va tibbiyot asoschisi Abu Ali Ibn Sino byusti hamda Bosh o‘quv bino hovlisida tashkil etilayotgan tibbiyot asoschilari xiyoboniga Respublikamiz tibbiyoti va tibbiyot fani sohasini rivojlanishida hissa qo‘shgan 10 nafar mashhur akademiklarning byustlari o‘rnatilsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Ekspluatatsiya va xo'jalik boshqarmasi boshlig'i B.T.Abubakirov.**

**Muddat: 2023-yil sentabr.**

1.9. O'quv binolari va talabalar turar joylari kirish joylari va qavatlariga Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti tomonidan yaratilgan san'at asarlari namunalari o'rnatilsin.

**Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, TTJ direksiyasi direktori A.D.Apisov, Bosh muhandis A.E.Ikromov, Ekspluatatsiya va xo'jalik boshqarmasi boshlig'i B.T.Abubakirov.**

**Muddat: 2023-yil iyul-avgust.**

1.10. Toshkent tibbiyot akademiyasining "Sharaf" kodeksi ishlab chiqilsin.

**Mas'ul: Barcha prorektorlar (T.A.Bobomuratov, Sh.A.Boymuradov, F.L.Azizova, M.Sh.Karimov, S.I.Dustmurodov, J.J.Isroilov), Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova.**

**Muddat: 2023-yil iyul.**

1.11. Tyutorlar faoliyati kuchaytirilsin va 4-5 kurs talabalariga murabbiylar tayinlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'opov.**

**Muddat: 2023-yil sentabr.**

1.12. TTAda Yoshlar yetakchisi boshlang'ich tashkiloti faoliyati samarali yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, TTA Yoshlar yetakchisi J.M.Umarov.**

**Muddat: 2023-yil iyul.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Tibbiy - profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha Tibbiy - profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani Salomova Feruza Ibodullayevnaning hisoboti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyada raqamlashtirish ishlari amalga oshirilishi va hujjatlar elektron almashinuvi tizimi yuritilishi munosabati bilan barcha bo'lim va dekanatlardagi ishlar jarayoni (davomat, o'zlashtirish, me'yoriy hujjatlar va h.k) to'liq raqamlashtirilgan holda olib borilishi, shuningdek, barcha kafedra xodimlari, jumladan, o'quv, ilmiy va ma'naviy ishlarga mas'ul shaxslar elektron kalitga ega bo'lishlari kafedra mudirlari tomonidan nazoratga olinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Akademiyaning barcha rahbar va mas'ul xodimlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil 1 sentabr.**

2.2. Akademiyada ijro intizomining tizimli yuritilishini ta'minlash maqsadida barcha xodimlar raqamlashtirilgan edoc.ssv.uz. va mf.ijro.uz hujjat almashinuvi elektron platformalaridan to'liq va muntazam foydalanishlari ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Akademiyaning barcha rahbar va mas'ul xodimlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil 1- sentabr.**

2.3. Fakultetlar kafedralarida o'quv va ilmiy ishlarni yuqori pog'onaga ko'tarish va zamonaviy talablarga javob beradigan darajada olib borish maqsadida xorijiy ta'lim muassalari bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari yaratilishi, magistratura

mutaxassisliklari va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, xalqaro va mahalliy ilmiy loyihalar tanlovida faol qatnashishi, xodimlarni nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlarga stajirovka o'tash uchun yuborish, shuningdek, nufuzli xorijiy o'quv va ilmiy maskanlaridan akademiya professor-o'qituvchilarni jalb etish ishlari bo'yicha reja ishlab chiqilsin va amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.4. Tibbiy - profilaktika va jamoat salomatligi fakultetiga qarashli 10-o'quv binoni ta'mirlash, zamonaviy o'quv va texnik vositalar bilan jihozlash, o'quv xona va foyelarni fakultet yo'nalishini inobatga olgan holda ko'rgazmali ma'lumotlar bilan bezash ishlari amalga oshirilishi ko'rib chiqilsin.

**Mas'ul: Moliya iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'smuradov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekani F.I.Salomova, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.5. Akademiyaning barcha kafedralarida o'quv jarayonini optimallashtirish maqsadida, dars jadvalini ratsional tuzishda mahsus dasturlardan foydalanish, bu borada boshqa OTMLar tajribasini o'rganish yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.6. Kafedralarda qoldirilgan darslarni qayta topshirish tizimini tubdan o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritilsin, shuningdek talabalar uchun ID kartaning joriy qilinishi ko'rib chiqilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 - yil davomida.**

2.7. Har bir kursda kamida 2 tadan ingliz tili guruhini tashkil qilinishi bo'yicha takliflar kiritilsin hamda shu guruh talabalarini akademik mobillikka jalb etilishi ko'rib chiqilsin.

**Mas'ul: fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023- yil davomida.**

2.8. Talabalarni ilmiy-tadqiqot izlanishlarga (to'garak, olimpiada, konferensiya va boshqa tanlovlarga) jalb etish va saralash natijasida ularni nomdor stipendiyalarga tayyorlash ishlari faollashtirilsin va fakultet ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama o'tqazilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil davomida.**

2.9. Talabalarning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini avtomatizm darajasiga yetkazish maqsadida kafedralar, sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazlari imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi, shuningdek malakaviy amaliyot imtihonlarini OSKI tarzida o'tkazilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, marketing va malakaviy amaliyot bo‘limi boshlig‘i I.Otajonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023-o‘quv yili davomida.**

2.10. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish hamda kafedralarda olib qolish maqsadida tashviqot va seleksiya ishlari samarali olib borilishi ta‘minlansin .

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.11. Ilmiy salohiyati 50% dan past bo‘lgan kafedralarda xodimlarning ilmiy ishlari hamda ilmiy mahsulotlari bajarilishi monitoringi olib borilishi va fakultet yig‘ilishlarida muntazam ravishda muhokamasi o‘tkazilishi ta‘minlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.12. Barcha kafedra xodimlarining shaxsiy ish rejasida belgilangan o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy mahsulotlar chiqarish rejasini bajarilishini nazorat qilinishi, muntazam ravishda monitoringini olib borilishi hamda fakultet kengashlarida ko‘rib chiqilishi ta‘minlansin, shuningdek, rejasi bajarilmagan xodimlarga intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi yo‘lga qo‘yilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Mo‘minova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil davomida.**

2.13. Barcha Akademiya kafedralarida xodimlarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish va sertifikatga ega bo‘lishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin, shuningdek, Akademiya tomonidan tashkil qilingan “Til markaziga” xodimlarning ishtiroki kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishi ta‘minlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

2.14. Barcha kafedralarda reyting qaydnomalari va reyting daftarchasini to‘liq raqamlashtirilishi ta‘minlansin, shuningdek dekan va barcha kafedra mudirlari elektron imzo orqali to‘liq ish yuritilishlari yo‘lga qo‘yilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023-yil davomida.**

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha Yuqumli kasalliklar kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari doktori Sh.B.Raxmatullaeva nomzodi

tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i v.v.b D.G'.Abdullaeva tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

5. Turli masalalar yuzasidan O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i v.v.b D.G'.Abdullaeva, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov so'zga chiqdilar.

5.1. Akademiyaning xalqaro hamkorlikni rivojlanishida qo'shgan mehnati va xizmatlari hamda sog'liqni saqlash, tibbiy ta'lim hamda ilm-fan rivojiga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun Turkiyaning Medipol universiteti ortopediya va travmatologiya bo'limi professori **Ibragim Azboy**, Qozon davlat tibbiyot universiteti rektori, professor **Sozinov Stanislav Alekseevich**, Germaniya Xalqaro hamkorlik tashkilotining (GIZ) sog'liqni saqlash loyihalari rahbari **Korneliya Bekker** va Germaniyaning OPASCA innovatsion tibbiyot kompaniyasi rahbari **Aleksey Sverdlov**larga Akademiyaning **Faxriy Professori** unvoni berilsin.

5.2. Akademiyaning professor-o'qituvchilari va talabalarning axborot resurs markazi imkoniyatlaridan foydalanishlari hamda "**Hinari**" platformasida faolliklari raqamlashtirilgan holda hisoboti kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ARM direktori G.V.Kuzmina.**

**Muddat: 2023-yil 10 iyun.**

5.3. Yangi 2023/2024 o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish maqsadida **kafedralar tomonidan quyidagi vazifalar bajarilishi ta'minlansin va keyingi Ilmiy kengashgacha (iyun oyiga qadar) hisoboti kiritilsin:**

- semestr yakuni bo'yicha qarzdor talabalarni qayta topshirishlarini ta'minlash;
- talabalar amaliyotini sifatli o'tkazilishini ta'minlash;
- yozgi semestrga tayyorgarlik ko'rish;
- yakuniy davlat attestatsiyasini yuqori saviyada o'tkazish;
- yangi o'quv yili uchun kafedrani barcha me'yoriy hujjatlarini yangilash;
- har bir pedagogni shaxsiy ish rejasidagi vazifalarni bajarilishini tahlil qilish, yangi o'quv yiliga reja tuzish;
- 1,2,3-kurslarda kredit-modul tizimini to'liq joriy qilish bo'yicha seminarlar tashkil qilish;
- yangi o'quv yili uchun dars jadvalini tuzishda o'quv boshqarma bilan hamkorlikda ishlash;
- yangi o'quv yilida kafedrada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shtatlarga ehtiyojlarni shakllantirish;
- yakuniy va oraliq nazorat uchun testlarni to'liq qayta ko'rib chiqish va yangilash;

- amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish, yangilash;
- kafedra veb-saytlardagi ma'lumotlarini yangilash;
- MOODLE platformasida fan resurslari (ma'ruza, test savollari, taqdimotlar va videomateriallar) ni yangilash;
- HEMIS platformasiga kafedra ma'lumotlarini to'liq kiritish;
- "Xodim – bot" telegram tizimida barcha xodimlar tomonidan foydalanishni ta'minlash.

5.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli **qaroriga muvofiq:**

2022/2023-o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim;

2024/2025-o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

**Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova quyidagi vazifalar bajarilishini ta'minlasin:**

- o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar (malaka talablari, o'quv rejalari, sillabuslar)ni ingliz tiliga tarjima qilish.

**Muddat:2023- yil 15- iyun.**

- fanlarni ingliz tilidagi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligini tahlil qilish, ingliz tili guruhleri uchun o'quv adabiyotlarini yaratish va xarid qilish choralari ko'rish.

**Muddat:2023- yil 20- iyun.**

- yangi o'quv yili uchun fanlar kesimida xorijiy va ingliz tili guruhleri bo'yicha o'quv yuklamalarini alohida ajratib, kafedralarga taqdim etish.

**Muddat:2023- yil 8- iyun.**

- kafedralarda o'quv-uslubiy materiallar (o'quv-uslubiy majmua, o'quv-uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallar)ni belgilangan muddatlarda sifatli tayyorlanishini nazorat qilish va monitoringini yuritish.

**Muddat: 2023 –yil 20- avgustga qadar har ikki haftada.**

- ingliz tilida dars beruvchi professor-o'qituvchilar faoliyatini qo'shimcha rag'batlantirish yuzasidan takliflar kiritish.

**Muddat:2023- yil 20- avgust.**

**Til o'qitish markazi direktori R.M.Abdullaeva:**

- ingliz tili guruhlariga dars berish uchun IELTS (S1) yoki **"Medical English"** maxsus kurslari sertifikatiga ega bo'lgan malakali o'qituvchilarni jalb etsin.

**Muddat: 2023- yil 5- iyun.**

- 144 va 288 soatlik **"Medical English"** maxsus malaka oshirish kurslari bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqsin va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta'minlansin.

**Muddat: 2023- yil 5- iyun.**

- malaka oshirish kurslari uchun video-darslar va interaktiv dasturlar yaratilishini, ta'minlasin innovatsion ta'lim texnologiyalari joriy etsin.

**Muddat: doimiy.**

- til bilish darajasiga qarab akademiyaning professor-o'qituvchilari 144 va 288 soatlik **"Medical English"** maxsus malaka oshirish kurslarida o'qitilsin.

**Muddat:2023- yil iyun-iyul oylari.**

- mazkur malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan professor-o'qituvchi va pedagoglarga ingliz tilida dars o'tishga ruhsat beruvchi sertifikatlar taqdim etilsin.

**Muddat:2023- yil iyul.**

**Barcha dekanlarga (B.T.Xalmatova, A.A.Irnazarov, A.A.Xamraev, F.I.Salomova, S.I.Aliev, J.X.Tursunov ):**

- har bir yo'nalishning har bir kurs kesimida kamida ikkitadan ingliz tili guruhleri tashkil qilinsin.

**Muddat:2023- yil 6-iyun.**

- ingliz tili guruhlarida ta'lim oluvchi talabalar ro'yxati shakllantirilsin.

**Muddat: 2023- yil 7- iyun.**

- fakultetlar kesimida ingliz tili guruhlariga dars beruvchi professor-o'qituvchilar ro'yxati shakllantirilsin va o'quv-uslubiy boshqarmaga taqdim etilsin.

**Muddat: 2023- yil 7- iyun.**

- kafedralarni ingliz tilida dars beruvchi pedagoglar bilan ta'minlanganlik holati nazorat qilinsin va monitoringi yuritilsin.

- **Muddat: 2023- yil 20- avgust.**

**Barcha kafedra mudirlari:**

- kafedrada o'qitiladigan har bir fan bo'yicha ingliz tilida dars beradigan pedagoglar ro'yxatini tegishli dekanatlarga taqdim etsin.

**Muddat:2023- yil 6-iyun.**

- kafedra professor-o'qituvchilarining **"Medical English"** malaka oshirish kurslarida o'qishlarini ta'minlasin.

**Muddat: 2023- yil iyun-iyul.**

- ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan guruhlar uchun o'quv adabiyotlarini yaratish va xarid qilish bo'yicha aniq takliflar kiritsin.

**Muddat :2023- yil 7-iyun.**

- me'yoriy hujjatlar (fan dasturlari, sillabus, kalendar-tematik reja)ni ingliz tiliga tarjima qilinishini ta'minlasin.

**Muddat: 2023-yil 15-iyun.**

- ingliz tili guruhleri uchun ingliz tilida sifatli o'quv-uslubiy materiallar (o'quv-uslubiy majmua, o'quv-uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallar) yaratishini ta'minlasin.

**Muddat:2023- yil 1-iyul.**

- ingliz tilini mukammal biladigan magistratura, klinik ordinatura bitiruvchilarini pedagogik faoliyatga jalb etsin.

**Muddat:2023- yil 20-avgust.**

- Xalqaro hamkorlik bo'lim xalqaro fakultet bilan birgalikda o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish choralari ko'rsin.

**Muddat:2023- yil 20-avgust.**

5.5. Akademiya va filiallar uchun doktorantura va tayanch doktorantura bo'yicha ixtisosliklar kesimida 2024 – yil uchun taqdim etilgan kvotalar tasdiqlansin (ilova).

5.6. 2023-yil Yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari onlayn tarzda o'tkazilsin.

5.7. 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi mas'ul kotibi etib xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Israilov Jaxongir Jamshidovich tavsiya etilsin.

5.8. 2023- yil ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida o'tkazilgan fundamental loyihalar tanlovi g'oliblari professor **M.M.Asadullaev** ("Qon aylanish kasalliklari (uyqu va yonbosh arteriyalari aterokaltsinozi) kliniko-biokimyoviy va patogenetik muammolari, postkovid nevrologik, psixiatrik, suyak-bo'g'im asoratlari,



davolash" mavzusidagi loyiha), professor **G.N.Sobirova** ("Post-covid-19 bilan og'riqan komorbid patologiyali bemorlarda reabilitatsiya texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi loyiha) hamda ko'p yillik samarali mehnati va Akademiyada ta'ris etilgan jurnallarning ("Yosh olimlar tibbiyot jurnali", "Journal of education and Scientific Medicine") OAK rayosatining qarori bilan tibbiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilishi va samarali ish yuritilishi munosabati bilan Bosh redaktor o'rinbosarlari **G.I.Shayxova** va **A.A.Oxunovlar** pul mukofoti bilan taqdirlansinlar.

5.9. Akademiya Ilmiy kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Akademiya huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash raislari A.G.Gadaev va G.I.Shayxova a'zolikka kiritilsinlar.

5.10. Akademiya ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.Turakulovning axboroti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasining mamlakatimizdagi Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings) va THE (Times Higher Education) reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish bo'yicha ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Moliya vazirliklarining 2022-yil 8-iyunda 24 q/q, 11/qq, 6-qq va 9-xx sonli qo'shma qarori tasdiqlangan. Ushbu qo'shma qarorining 1-ilovasida QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun 18 ta oliy ta'lim muassasalari tanlab olingan, jumladan Toshkent tibbiyot akademiyasi. Akademiyani xalqaro hamda mahalliy reytingdagi o'rnini yaxshilashga har bir xodim hissa qo'shishlarini amaliy jihatdan joriy qilish maqsadida Akademiya rektorining 2022-yil 20-dekabrda 438-sonli va 2022-yil 21-dekabrda 440-sonli buyruqlari, 2023-yil 6-fevralda 26-sonli ko'rsatma xati, Akademiya O'quv ishlari bo'yicha prorektorining bildirishnomasi asosida Akademiyada ijro intizomini mustahkamlash maqsadida:

- Akademiyaning kafedralarida mudirlik lavozimida faoliyat olib borayotgan nomlari ko'rsatilgan rahbar xodimlariga (4-ilovada keltirilgan 24 nafar) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan **xayfsan intizomiy jazo chorasi** qo'llanilsin va Bosh buxgalter (B.Alijonova) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 299-moddasiga ko'ra Intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan, mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmasligini **inobatga olsin**.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.b. S.Dustmuradov.**

**Muddat: 2023 –yil 1 iyun.**

5.11. Neyroxirurgiya yo'nalishi 1-kurs magistr talabasi Jalolova Moxira Sirojiddin qizi Xitoy Xalq Respublikasi Tianjin Medical university General Hospital tomonidan tashkillashtirilayotgan "The 3<sup>rd</sup> Interim Meeting of the Asian Congress of Neurological

Surgeons” neyroxirurgiya bo‘limiga 10 kunli (kurs muddati 2023-yil 22-iyundan 2-iyulgacha) stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

5.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 11-aprelda “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida TTAgaga biriktirilgan e‘tiborga muhtoj yoshlarning sifatli ta‘lim olishi, davlatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar bilan tanishib borish, kasb-hunarni egallash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun 50 nafar e‘tiborga muhtoj yoshlarga 1 donadan televizor va noutbuk hamda kitoblar jamlanmasi Akademiyaning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xarid qilib berilsin.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.**

**Rektor**



**A.Shadmanov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 398127  
Sana: 08.06.2023